

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva</b>	
Zamonaviy axborot texnologiyalarining yosh avlod tarbiyasiga psixologik ta'siri tahlili.....	141
<b>I.T.Tojiboev, Z.X.Komilova</b>	
Professional ta'lim muassasalarida dasturlash tillarini o'qitishning zamonaviy usullari .....	145
<b>Z.X.Mamatova</b>	
Zamonaviy informatika mashg'ulotlariga qo'yilayotgan metodik talablarni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik omillari.....	151
<b>A.Y.Axmedov, Z.F.Sherqo'ziyeva</b>	
Ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	156
<b>B.B.Djalalov</b>	
Interfaol o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik tizimi.....	160
<b>B.S.Siddiqov</b>	
O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari.....	165
<b>D.A.Yo'ldosheva</b>	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogikada zaruriyat sifatida .....	170
<b>I.I.Tuychiyeva, Z.Axunova</b>	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati....	174
<b>J.U.Tojiboyev</b>	
Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi .....	178
<b>M.O.Karimova, X.X.Tojiyev</b>	
Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi .....	183
<b>H.A.Абдуллаева</b>	
Педагогические проблемы формирования исследовательских компетенций будущих учителей.....	190
<b>N.S.Temirov</b>	
Oliy o'quv yurtida mustaqil ta'lim orqali talabalar bilimini oshirishning zamonaviy yondashuvlari .....	194
<b>O.F.Hamrayeva</b>	
Talabalarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. ....	199
<b>Sh.O.Aripov</b>	
Xorij olimlarining o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonida gender yondashuvni tadbiq etishga doir fikirlari .....	204
<b>Sh.N.Mehmonaliyev</b>	
Koshifiyning adabiy-pedagogik merosi va uning yoshlarning ma'naviy ahloqiy qadriyatlar tizimiga ta'siri. ....	208
<b>U.Q.Maqsudov</b>	
Modernizatsiyalash sharoitlarida talabalarning kasbiy dunyoqarashni shakllantirish imkoniyatlari.....	212
<b>O.N.Fozilova</b>	
Maktabgacha ta'limda xorijiy mamlakatlar tajribasi (Buyuk Britaniya) .....	217
<b>M.E.Xallokova</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'yin texnologiyasining faollashtiruvchi omillari.....	222
<b>I.S.Soliyev</b>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy omillari .....	227
<b>F.O.O'rinova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish zarurati va ijtimoiy ahamiyati .....	232
<b>R.Y.O'rinov</b>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual faolligini oshirishning integrativ texnologiyalari.....	238



UO'K: 458.14.014.13

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA INTELLEKTUAL KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI VA IJTIMOY AHAMIYATI****НЕОБХОДИМОСТЬ И СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ****THE NEED AND SOCIAL SIGNIFICANCE OF DEVELOPING INTELLECTUAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS****O'rinova Feruza O'Ijayevna** 

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Annotatsiya**

Jamiyatning intellektual potensialini shakllantiruvchi hamda fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy mexanizm ta'lim hisoblanadi. Ta'lim tizimining samaradorligi u yetishtirayotgan mutaxassislarining salohiyati, intellektual madaniyati bilan o'lchanadi. Shuning uchun oliy ta'lim muassasasi o'ziga xos ijtimoiy yetuklik xususiyatlariga, ya'ni shakllangan psixologik madaniyat, barqaror gumanistik nuqtai nazarga, rivojlangan intellektual sifatlarga ega bo'lgan, kelajakda o'z ishining ustasi bo'lib etishishi uchun bilimli shaxsni tarbiyalashi zarur. Bu vazifani hal qilishning ma'lum murakkabliklari mavjud bo'lib, ular fan va texnologiyalarning rivojlanish darajasi bilan ta'lim muassasalari bitiruvchilarining intellektual rivojlanishi darajasi o'rtasidagi tafovut, ya'ni uzilishdan iborat bo'lib, hozirda ushbu muammo bir qator mualliflar tomonidan faol muhokama qilinmoqda. Ushbu maqolada Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida intellektual kompetentlikni rivojlantirish zarurati va ijtimoiy ahamiyatining pedagogik asoslari yoritilgan.

**Аннотация**

Образование – это социальный механизм, формирующий интеллектуальный потенциал общества и обеспечивающий развитие науки, техники и технологии. Эффективность системы образования измеряется потенциалом и интеллектуальной культурой специалистов, которые она выпускает. Поэтому для того, чтобы стать в будущем мастером своего дела, в высшем учебном заведении необходимо воспитать образованного человека, обладающего определенными характеристиками социальной зрелости, т.е. в решении этой задачи имеются определенные трудности, заключающиеся в разрыве между уровнем развития науки и техники и уровнем интеллектуального развития выпускников образовательных учреждений, то есть разобщенности, и эта проблема в настоящее время активно обсуждается ряд авторов. В данной статье освещены педагогические основы необходимости и социальной значимости развития интеллектуальной компетентности у будущих учителей английского языка.

**Abstract**

Education is a social mechanism that forms the intellectual potential of society and ensures the development of science, technology and technology. The effectiveness of the educational system is measured by the potential and intellectual culture of the specialists it produces. Therefore, it is necessary for a higher education institution to educate an educated person with specific social maturity characteristics, i.e. a formed psychological culture, a stable humanistic perspective, and developed intellectual qualities, in order to become a master of his work in the future. There are certain difficulties in solving this task, which consist in the gap between the level of development of science and technology and the level of intellectual development of graduates of educational institutions, that is, a disconnection, and this problem is currently being actively discussed by a number of authors. This article highlights the pedagogical foundations of the need and social importance of developing intellectual competence in future English language teachers.

**Kalit so'zlar:** intellektuallik, intellektual kompetentlik, intellektual faollik, ijtimoiy intellekt, aql-idrok, anglash, tushunish, fahmlash, intellektual resurs, motivasion-qadriyatga yo'naltirilganlik, intellektual madaniyat.

**Ключевые слова:** интеллектуальность, интеллектуальная компетентность, интеллектуальная деятельность, социальный интеллект, интеллект, осведомленность, понимание, понимание, интеллектуальный ресурс, мотивационно-ценностная направленность, интеллектуальная культура.

**Key words:** intellectuality, intellectual competence, intellectual activity, social intelligence, intelligence, awareness, comprehension, understanding, intellectual resource, motivational-value orientation, intellectual culture

**KIRISH**

Bugungi kunda intellektuallik, intellektual kompetentlik va ijtimoiy intellektning ilmiy-pedagogik va ijtimoiy ahamiyatini tadqiq etish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Chunki sun'iy

## PEDAGOGIKA

intellektning rivojlanib borishi va so'ngi yillarda inson intellekti va sun'iy intellektning munosabatlari o'rtasidagi masalalariga ziddiyatli qarashlarning yuzaga kelishi bu zamon uchun yangicha intellektual madaniyatni shakllantirish va insonlarda ijtimoiy intellektning yangicha ko'rinishini tarbiyalash masalalari dolzarbshlik kasb etmoqda.

Tadqiqotlarga ko'ra, «intellekt, lotincha «intellectus» so'zidan olingan bo'lib, u odatda «aql-idrok», «anglash», «tushunish», «fahmlash» degan ma'nolarni anglatadi»[1.264]. Ushbu sifatni insonda yuksak darajada namoyon bo'lishi, aql-idroki, fahm-farosati, ongu-shuurining yuksak darajada ishlashi bilan belgilanadi. Boshqa bir ma'nosiga ko'ra, «insonni boshqa jonzoatlardan ajratib turuvchi va uning majburiyatini belgilovchi «fahm-farosati, o'ylash, anglash malakasi»ni anglatuvchi so'z ham «aql» deb ataladi». Demak, intellektuallik yuksak aql-idroki va dunyoqarashini ko'rsatib beruvchi darajasi hisoblanadi.

“Pedagogika” ensiklopediyasida intellekt tushunchasi quyidagi talqin qilingan: Intellekt kishilarning aqli, idroki, zakovati, ma'naviy jihatdan etuklik darajasini ham ifodalaydi; tasavvur, idrok, sinchiklik orqali jamlangan materialni bilish usullari (taqqoslash, abstraksiya, tushuncha, hukm va.h.k.) orqali asosli bilimga ega bo'lish yoki mavjud bilimni tanqidiy tahlil etish qobiliyatini ham anglatadi. Tafakkur tarixida intellekt to'g'risidagi fikr-mulohazalar turlicha bo'lgan. Intellekt ma'naviyatga taaluqli bo'lgani uchun ruhiy holat mahsuli sifatida irodadan ustun turadi, degan tasavvurlar mavjud. Intellektual resurs insonlarda bilim, hayotiy tajriba va idrok hamda zehn asosida, avvalo, o'z aqliy omilkorlik salohiyatini, turmush tarzini turli yo'nalish va shakllarda yanada boyitish, uning yangi qirralarini ochish, mukammallashtirish imkoniyatidir.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida **«intellekt»** (lot. intellects - bilish, tushunish, idrok qilish) so'zi insonning aqliy qobiliyati, hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati» degan ma'nolarni anglatishi qayd etilgan[2-57]. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, tushunchalari ham kirib ketadi. Intellektning rivojlanishi tug'ma iste'dod, miya imkoniyatlari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq bo'ladi. Intellektning namoyon bo'lishi «inson faoliyatining natijalariga, shuningdek, psixologik testlarga qarab ham belgilanadi». Insonning aqliy qobiliyati natijalari intellektual mulk atamasi bilan ifodalanadi. Demak, intellektuallikni aqliy qobiliyat, bilim, tanqidiy tafakkur, dunyoni ilmiy bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati, turli masalalarni individual hal qilishi, oqilona ish tutishi, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqatining yuksak ko'rinishi deb atash mumkin.

Avvalo, «aql – bu arabcha so'z bo'lib, yuksak darajada fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lish ma'nosini anglatadi»[3-58]. G'arb adabiyotlarida bu tushunchaning muqobili sifatida intellekt so'zi qo'llaniladi. Intellekt so'zi o'zbek tiliga tarjima qilinganda «aql, idrok, zakovat; aqliy jihatdan etuklik», – ma'nolarini bildiradi. Aql – inson miyasining dunyoning aks ettirish va shaxsning voqelikka bo'lgan munosabatini boshqarib turadigan faoliyatidir. «Aql ob'ektiv dunyo narsa-hodisalarining muhim qonuniy aloqa-munosabatlarini aks ettirish va shu tariqa voqelikni ijodiy o'zgartirish imkonini beradi». Inson aql-tafakkuri miya faoliyatining nodir hodisasi bo'lib, u olamni va o'z-o'zini anglashning muhim vositasi sifatida ijtimoiy-madaniy ahamiyat kasb etadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Umumistilohlar lug'atida (*AllWords Dictionary*) intellektga «xotira, tasavvur, bilim, tajriba, yangi vaziyatlarga moslashish va muammoni echish qo'nikmasi» deya tarif berilgan. Falsafa va psixologiya lug'ati (*Dictionary of Philosophy and Psychology*)da intellekt «maxsus nazariy fikrlash va tafakkur qilish layoqati» sifatida ta'riflanadi. Boshqa bir manbaga ko'ra, «intellekt ruhiyat va zehniyatning kesishgan nuqtasi, bir-birini anglash holati»[4-54], deb qayd etiladi.

Professor V.B.Tarasovning ta'kidlashicha, «intellekt individning ma'lum darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlari tuzilishidan iboratdir»[5]. Oksford universitetining professori N.Bostromning fikricha, «intellekt – insoniyat uchun mavjud bo'lgan muammolarni echishga qodir aql» dir. Intellektning mohiyati va rivojini tushuntirish bo'yicha turli falsafiy oqimlar hukm surib, ular ma'lum bir ilmiy qarashlar, fikrlar, mulohazalar negizida birlashgan hamda xuddi shu yondashuv qurshovida munozaralar, bahslar bo'lgan.

Shuningdek, intellektning muhim asosi bo'lgan ijtimoiy intellektni ko'rib chiqish ham muhim vazifalardan biridir. Ijtimoiy intellektning yuzaga kelishida umumiy intellektning barcha elementlari

bevosita ishtirok etadi: tafakkur, tafakkur turlari, analiz, sintez, hayol, taqqoslash, xotira va uning turlari.

Ijtimoiy intellekt tushunchasi birinchi marta 1920 yili E.Torndayk tomonidan fanga kiritilgan. U mazkur tushunchani - shaxslararo munosabatlarda ongli, o'ylab, oqilona harakatlar bilan muloqotda bo'lish, deb tushuntirgan. E.Torndayk ijtimoiy ong (aql)ni odamlar bilan muloqotning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan o'ziga xos kognitiv qobiliyat deb hisoblagan. Ijtimoiy aqlning asosiy vazifasi muloqot jarayonidagi hatti-harakatlarni oldindan his eta olishdir. Ijtimoiy intellekt umumiy intellektning bir turi hisoblanadi.

Ijtimoiy intellekt muammosi respublikamiz psixolog va pedagog olimlari tomonidan ham o'rganilganligini e'tirof etish o'rinli. Ammo muammoga ijtimoiy intellekt tusi berilgan bo'lmasa-da, uning asosiy komponentlari hisoblangan shaxslararo munosabat, pedagogik muloqotga qobiliyatlilik, o'zaro bir-birini tushunish va idrok etish, pedagogik hamkorlik va faoliyatni boshqarish masalalari o'rganilganligini e'tirof etish zarur. O'zbekistonlik olimlardan R.Safarova, B.Xodjaev, Sh.Abdullaeva, X.Tojiboeva, N.Dilova, Q.Inoqovlar tomonidan hamkorlik pedagogikasi masalalari, o'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyalari, o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik imkoniyatlari ritib berilgan.

Psixolog olimi A.L.Yujanina ijtimoiy intellektni amaliy va mantiqiy intellekt bilan bir qatorda ko'rib chiqadi. Oxirgi ikkitasini u sub'ekt-ob'ekt munosabatlari doirasida kiritadi. Ijtimoiy intellektni esa, sub'ekt-sub'ekt doirasiga qo'shadi. Muallif, ijtimoiy intellekt – bu uch o'lchovda ko'riladigan alohida ijtimoiy qobiliyatdir, degan xulosaga kelgan :


1.Ijtimoiy-perseptiv qobiliyatlar – insonning individual adekvat ifodalash imkoniyatini ta'minlovchi to'liq shaxslik qurilmasidir. Uning xususiyatlari emosional doirasidagi psixik jarayon va vaziyatlarga ko'chib o'tadi. Shuningdek, uning atrofdagilar bilan munosabatida xarakterini anglashdagi aniqligidir. Biroq, refleksiyaning ijtimoiy-perseptiv jarayonlar bilan aloqasini ham e'tiborga olish lozim. Shuning uchun ushbu hodisaning psixologik mazmunini, o'z-o'zini anglash qobiliyati, ya'ni o'zining individual -shaxslik sifatlarini anglash, xatti-harakat motivlari va o'zini boshqalar tomonidan qabul qilinishidagi xarakterini ham hisobga olish zarur.

2.Ijtimoiy tasavvur – bu insonning tashqi belgilari asosidakishilarning individual va shaxslik xususiyatlarini adekvat modellashtirish qobiliyatidir. Shuningdek, kelgusidagi o'zaro ta'sir xususiyatlarini aniq ko'ra bilish, aniq vaziyatlarda insonning hatti-harakati xarakterini bashorat qilish qobiliyati hamdir.

3.Muloqotning ijtimoiy texnikasi – bu vaziyatni idora qilish va o'zaro ta'sir shaxslik sifatini yo'naltirish, o'zining rolini o'ziga qabul qilish mahoratida namoyon bo'luvchi «harakatdagi» komponentdir. U muloqot texnikasi va vositasini talab qiladi.

Ijtimoiy intellekt va ijtimoiy kompetentlik o'rtasidagi umumiylikni baholash tuzilmasiga N.Kantor va R.Xarlou tadqiqotlari tufayli muhim parametr — ijtimoiy bashoratlash kiritildi. Bizning tadqiqotimizda o'quvchilarda ijtimoiy intellektning mazkur tavsifini namoyon bo'lish darajasi shuni ko'rsatdiki, o'smir yoshidagi bolalar o'zlarining kelajagi haqida o'ylaydilar.

Biz ijtimoiy intellekt komponentlariga doir turli nuqtai nazarlarni tahlil etish asosida uning quyidagi uch blokli tuzilmasini aniqlashtirdik.



### Ijtimoiy intellektni rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari

O'tkazilgan tahlillarni umumlashtirish ijtimoiy intellektni rivojlantirishning ichki va tashqi omillarini ajratib ko'rsatish imkonini berdi. Tashqi omillarga ijtimoiy, ichkisiga esa, psixologik omillar kiritildi. Ijtimoiy omillar sifatida quyidagilar belgilandi: ijtimoiy muhit; oila; ta'lim-tarbiya jarayonlari. Psixologik omillarga sub'ektning shaxsiy sifatleri, aynan: motivasion-qadriyatga yo'naltirilganlik, empatiya va refleksiyaga qobiliyatlilik kiritildi.

Bo'lajak tarbiyachilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish ko'plab psixologik omillar ta'sirini hisobga olishni talab etadi. Jumladan, o'z-o'zini anglay bilishi, ya'ni o'z-o'ziga baho berish mayli va istagi kabi ustanovkalar; o'zini boshqa shaxslar bilan taqqoslashi; fikrlarini erkin, ochiq, mazmunli ifodalashi; o'zgalarning fikrini eshita olishi va murosa qila olish kabi emosional xususiyatlar, shaxs motivasion sohasi rivoji mazkur jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Intellektual kompetentlikni rivojlantirish jarayoni talabaning intellektual faoliyatining rivojlanishi bilan ham bog'liq. Intellektual ko'nikmalar o'zida xotiraning rivoji; idrok etishning rivoji; tasavvurlarning rivoji; diqqatning rivojini aks ettiradi[6-56].

Intellekt – shaxs xususiyati bo'lib, ob'ektiv borliqdagi predmet va hodisalarni ularning o'ziga xos aloqalari va qonuniyatlari bilan ongimizda aniq va chuqur aks ettiradigan qobiliyatdir.

Intellekt barcha aqliy jarayonlarda, birinchi navbatda, tafakkur va ijodiy xayolda ko'rinadi. U ko'proq yorqinroq yangi muammoni mustaqil echishda kuzatiladi.

Intellektning har xil odamlarda turli darajada rivojlanganligi tufayli bir nechta sifatleri mavjuddir:

aqlning tushunariligi – fikrlar oddiyligi va ishonchliligi, unda qandaydir o'ylangan fikr yo'qligi. Bu nafaqat intellektual, balki qandaydir ma'noda axloqiy xususiyatdir. Chunki aqlning tushunariligi odatda nafaqat harakat uchun javobgarlik, balki fikrlar uchun ham javobgarlikni his qilishdir;

aqlning mantiqiyiligi – tafakkurdagi qat'iy davomiylik va sistemalilikdir;

aqlning chuqurligi yoki o'ylovchanlik – predmetlarda va hodisalarda o'ziga xoslikni bilish qobiliyati;

aqlning kengligi – masalaning barcha tomonlarini hisobga olgan holda fikr yuritish qobiliyati;

aqlning yumshoqligi va egiluvchanligi – shablonlik, stereotiplikning yo'qligi, fikrlashni o'zgartirish qobiliyati;

mustaqillik va originallik. Bu oddiy aql yumshoqligi bo'lmasdan, balki yangilik aqliy faoliyatning ijodiy xususiyati;

aqlning tanqidiyligi – tekshirilmagan, shunchaki olingan hukmlar yo'qligi, chuqur o'rganilgan, tahlil qilingan, inkorlarga jiddiy munosabatning mavjudligidir. Inson aqlining bu barcha individual xususiyatlari mehnat jarayonida paydo bo'ladi, u shakllanadi va rivojlanadi.

Intellektual kompetentlikni rivojlantirish emosionallik bilan aloqadorlikdadir. Bo'lajak o'qituvchidagi salbiy his-tuyg'ularini yo'qotish, o'rnini ijobiyarlari bilan to'ldirish zarur. Masalan,



odamlarga nisbatan muhabbatni uyg'otish kerak. Shu bilan birga talabada turli vaziyatlarda o'ziga ishonch bilan qarash tuyg'usini tarkib toptirish zarur. Agar boshqalarni sevish – bu boshqalarga nisbatan munosabatni ifodalasa, o'z-o'ziga ishonch esa, o'z-o'ziga munosabatni anglatadi. Ya'ni talabada tor ma'nodagi «Men» hissini hosil bo'lishidir. Sevgi va ishonchdan tashqari bir his-tuyg'udan voz kechish va o'rniga boshqasini chaqira olish, qo'rquvni boshqara olishga o'rgatish ham muhim psixologik omillarning emosional sabablariga taalluqlidir[7].

V.I.Morasanova «Individual o'z-o'zini boshqarish va inson xarakteri» nomli maqolasida xarakter tipologiyasi muammosiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, xarakter tipologiyasi va xususiyatlarini qo'yish muammosi tabiiyroq bo'lib, uslubiy-qat'iy usulda shaxs omili nazariyalarida echiladi. Bu erda xarakter xususiyatlari va tiplari har xil tartibdagi omillar sifatida qarab chiqiladi, shaxs tuzilishining sifatii har xil darajalaridek tasvirlanadi. Muallif xarakter tipologiyasini o'rganishda psixikani tadqiq qilishga sub'ektiv yondashib, anglangan o'z-o'zini boshqarishning rivojlanish xususiyatlari nuqtai nazaridan qarab chiqadi. Bu o'rinda o'z-o'zini boshqarish sub'ektiv faollikning psixologik mexanizmi sifatida o'rganiladi.

U olib borgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, individual o'z-o'zini boshqarish nafaqat xarakter ko'rinishini nazorat qilishga imkoniyat yaratganini, balki o'z-o'zini boshqarish xarakterning shakllanishi va shaxs yo'nalishining rivojlanishi bilan bog'liqligini tasdiqlaydi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida intellektual kompetentlikni rivojlantirishda motivasion faoliyatining rivojiga ta'sir etuvchi psixologik omillar sirasiga kiradi.

Motivasiya – motivlarning harakatlanish jarayoni, insonni asosiy faoliyatga undovchi motivlar yig'indisi. Motiv esa fransuzchadan tarjima qilinganda, undovchi kuch, sabab degan ma'noni bildiradi.

E.G'oziev va R.Asomovalarning tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, motiv va motivasiya tizimi shaxsning faoliyati, muomalasi, xatti-harakatining ichki regulyasiyasi funksiyasini bajarib, ehtiyojini qondirish, xohish-istak, ezgu niyat, orzu-tilak, mayl, his-tuyg'u, ustanovka, ideal, imon-e'tiqod, vijdon, maqsad qo'ya olish va boshqalarni amaliyotda ro'yobga chiqarishning bosh omili hisoblanadi. Demak, jamiyatni demokratlashtirish va insonparvarlashtirishpedagogika fani oldiga yuksak vazifalarni shart qilib qo'yadi. Ana shunday vazifalardan biri talabalarda intellektual madaniyatini rivojlantirishdir. Aynan talaba shaxsiga yangicha yondashish orqali demokratik va insonparvar jamiyat uchun asosiy qadriyat sanalgan «jamiyat hayotida faol ishtirok etish», «hamkorlik», «individuallashtirish», «ongli intizom», «tolerantlik», «qadr-qimmat», «erkinlik» kabi tushunchalar hayotda o'z amaliy tasdig'ini topadi. Shu bilan birga, mazkur qadriyatlarni amalga oshirish orqali talabalarda intellektual madaniyatni rivojlantirish samaradorligi ortadi.

### XULOSA

Xulosa qilganda, intellektual kompetentlik murakkab tuzilishga ega. U o'z ichiga intellektual qoidalar, tamoyillar, qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni, ya'ni intellektual ongni, ularni ro'yobga chiqarish, singdirish, himoya qilish bilan bog'liq faoliyat va munosabatlarni qamrab oladi. Codda qilib aytganda, intellektual madaniyat deganda, mavjud intellektual me'yorlarni o'zlashtirish va rioya qilish darajasi tushuniladi. Janubiy Kaliforniya universiteti talabalari bir haftada har bir fan doirasida 200 betgacha kitobni mustaqil o'qib o'rganishlari, mustaqil ta'limga alohida e'tibor qaratishlari yoziladi. Umuman olganda, talabaniing intellektual madaniyati ta'lim jarayonida ko'plab kitoblar o'qishi va uni tahlil qilishi, kasbiy faoliyatda esa, olgan bilimlari asosidagi ko'nikmalar va tajribalari ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, biz talabalarni ko'plab kitoblarni mutolaa qilishga, ilmiy-falsafiy asarlarni mustaqil o'qish ko'nikmasini shakllantirmasdan turib, ularni intellektual salohiyatini rivojlantirish miz dushvor. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ham yurtimizda kitobxonlik muhitini shakllantirish, kitob sanoatini rivojlantirish, yoshlarni ko'proq kitob o'qishga da'vat qilayotganligi ham bejiz emas. Chunki ko'plab kitoblarni o'rganib, tahlil qilish orqali dunyoqarashini shakllantirgan mutaxassislar bugungi kunning zaruratidir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Пиаже, Ж. Психология интеллекта. - СПб.: Питер, 2003.
2. Тихомирова, Л.Ф. Формирование и развитие интеллектуальных способностей ребенка. - М.: Рольф, 2000.
3. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Т., «Университет» нашриёти, 2003, -Б.58.
4. Roback A.A. Intelligence and Behavior. Psychol. Review, 1992, Vol. XXIX, -P.54.
5. Тарасов В.Б. От многоагентных систем к интеллектуальным организациям: философия, психология, информатика. - М.:Эдиториал УРСС, 2002. –С. 352.

PEDAGOGIKA

---

6. Когнитивный подход: Монография. Отв. ред. Лекторский В.А. М. Канон, Реабилитация, 2008. –С. 464.S
7. Urinova F., Azizmatova Z., Fazliddinova . Didactic foundations for forming the professional competence of the future teacher. //Evraziyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy. – 2023. – t. 3. – №. 4 part 4. – s. 197-202.
8. Aminov M. Innovation ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik.(Elektron manba)/tmetod.uz/wp-content/uploads/innovation-talim.
9. O'rinova F. Innovative reforms in the modern preschool education system //Science and innovation. – 2023. – t. 2. – №. B2. – s. 557-561.
10. Uljayevna U. F. The activity of developmental centers in the formation of children's abilities /Science and innovation.– 2022.– t.1 №. B2. – s. 107-110.
11. <https://ia800902.us.archive.org/0/items/maxwaltersgerman00waltrich/maxwaltersgerman00waltrich.pdf>